



Firibgarlik jinoyatlarini sodir etilishi uning usullari hamda oldini olish chora-tadbirlari

**Erkinbayev Oybek
 Elmurod o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
 3-o'quv kursi kursanti*

Annotatsiya

Bugungi kunda firibgarlik jinoyatlarining turlari, xolati va firibgarlik jinoyatlariga doir muammolar hamda ushbu muammolarning yechimi o'ziga xos xusussiyatlari haqida so'z boradi. Qolaversa bugungi kunda firibgarlik jinoyatining o'sib borish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar hamda sabab va sharoitlar haqida izlanishlar ushbu jinoyatlarni oldini olish hamda jabrlanuvchilar sonini kamaytirish yuqorida keltirib o'tilgan jihatlardan foydalilanilgan holda kiberfiribgarlikning sodir etilishi shuningdek uni sodir etish usullari yevropa davlatlarida sodir etilayotgan kiberfiribgarlikning usul va uslublari shakllari hamda firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashish faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Firibgarlik, kiberfiribgarlik, firibgar shaxs, online firibgarlik, jinoyatchi, jinoyatchi shaxsi, profilaktika.

Anontation: today there is talk about the types of fraud crimes, cases and problems related to fraud crimes, as well as the peculiarities of the solution to these problems. In addition, TODAY, research on the factors and causes and conditions affecting the growth rates of the crime of fraud and the Prevention of these crimes and the reduction of the number of victims the occurrence of cyberbullying using the above-mentioned aspects as well as the methods and methods of cyberbullying taking place in European countries, as well as the methods and methods of combating

Base concepts: fraud, cybercrime, fraudulent person, online fraud, criminal, criminal person, preventive.

Аннотация: Сегодня речь пойдет о видах мошеннических преступлений, характере и проблемах мошеннических преступлений, а также об особенностях решения этих проблем. Кроме того, в настоящее время проводится исследование факторов и причин и условий, влияющих на темпы роста мошеннических преступлений, предотвращение этих преступлений и снижение числа жертв, с использованием вышеперечисленных аспектов говорится о способах и формах кибермошенничества, методах и методах кибермошенничества, совершаемых в европейских странах, а также о направлениях совершенствования деятельности по борьбе с мошенническими преступлениями.

Ключевые понятия: мошенничество, кибермошенничество, мошенник, мошенничество онлайн, преступник, личность преступника, профилактика.

Bugungi kunda zamonning rivojlanib borishi mamalakatlarning jadallik bilan iqtisodiyotining o'sib borishi hamda siyosatning va qonunchilikning davrga qarab moslashib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek bugungi kunda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan odilona siyosat natijasida mamlakatimiz porloq kelajak sayin ko'tarilib bormoqda. Shuningdek mamalakatda ilm-fan va inovatsiyalarning rivojlanib borishi natijasida davlat aktivlari hamda hujjatlar to'liq shaklda elektronlashtirilib borilayotgani hech birimizga sir emas. Mamlakat rivojiga qancha hissa qo'shayotgan kishilar bo'lishiga qaramay uning kelajagi uchun befarq insonlar ham tobora ortib bormoqda. Chunki yurtning ertasi uchun qayg'urmagan har bir inson, yosh avlod bu haqda o'ylamas ekan mamlakat zalolat botqog'iga yuz tutaveradi. Buning natijasida bilimsizlik, ilmsizlik kuchayib boradi va bu o'z navbatida jinoyat ko'chasiga kirib borayotganlar sonining tobora oshib borishiga olib keladi. Shunday jinoyatlar sodir etish sirasiga tekin pul topish, ya'ni hech qanday peshona ter to'kmay oson pul topish payiga tushgan yolg'onchi kimsalar o'zgalarning ishonchini suiste'mol qiluvchi manfurt kimsalarning ko'payishiga zamin yaratadi. Bu esa bugungi kunda yurtimizda ham oson pul topish ilinjida yurgan firibgar shaxslarning ko'payishiga afsuski katta zamin yarib kelmoqdadir.

Dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli-iqtisodiyotning katta sur'atlar bilan kirib kelishi va jadallik bilan rivojlanishi xususan mulkiy harakterdagi bitimlar va shartnomalar, online platformalar orqali rasmiylashtirilishining ommalashishi bilan barcha turdag'i mulkiy huquqlarning daxlsizligi ta'minlashga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish asosiy vazifa sifatida ko'rishimiz mumkin. Jahonda mulk, unga bo'lган huquqning daxlsiz ekanligi sababli uning jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, firibgarlik uchun javobgarlik va jazo belgilash, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni o'rnini qoplash hamda jinoyat qonunchiligining tegishli normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, takomillashtirish, mulkka qarshi jinoyatlarning oldini olishning samarali istiqbollari va zafarli kelajagini tadqiq etishga alohida etibor qaratilmoqda. BMT Moliya qo'mitasining 165-sessiyasida „Firibgarlik va korrupsiyaga qarshi kurashishning yangilangan me'yorlari”¹ qabul qilinishi va firibgarlik hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning birgina satndartlarini qabul qilinishi bugungi kunda firibgarlikka qarshi kurashish uchun anchayin keng imkoniyatlar shuningdek mazkur jinoyatlarning sodir etilishi qisqartiribgina qolmay u bilan tizimli kurashish uchun dastlabki marra sifatida keng tadbiq etib kelinmoqda .

O'zbekiston Respublikasida 2023-yil davomida jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 73797 nafar shaxsga nisbatan 58418 ta jinoyat ishi ko'rib chiqildi, 1244 nafar shaxs oqlanib, rehabilitasiya qilindi. 7362 nafar shaxs ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lмаган jazolar tayinlanishi munosabati bilan sud zalida qamoqdan ozod qilingan. IIV ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sodir etilgan jinoyatlar soni, jami 104 096 tani tashkil etgan bo'lib, shundan 18 492 ta yoki jami iqtisodiy jinoyatlarga nisbatan 40,6 foiz firibgarlikdir. Bundan tashqari 2023-yilda messenjerlardan foydalangan holda

¹ <http://www.fao.org/documents/card/ru/c/a85eb192-8c31-45e1-9b8d-ac2533258738>

sodir etilgan firibgarlik jinoyatlari ikki barobarga oshgan: 12 foizdan 22,5 foizgachadir. Hisobot davrida ko‘rilgan jinoyat ishlarning aksariyatini firibgarlik, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish, o‘g‘rilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, egallah, saqlash va boshqa harakatlar, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish, qasddan badanga yengil shikast yetkazish, bezorilik, qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish va pora berish bilan bog‘liq jinoyatlar tashkil etadi.

Ijtimoiy turmushda insonlar o‘zaro bir-birlari bilan muomala qilar ekan, ular orasida turli xil munosabatlar o‘rnataladi. Ayrimlar sof, halol yo‘l bilan, o‘zgalar haqqidan qo‘rqqan holda bu munosabatni o‘rnatsa, ayrimlar insonlarning soddaligi, ishonuvchanligini suiiste‘mol qiladi. Bunday kimsalarning ham jamiyatda o‘z nomi va o‘rni bor. Ular firibgarlar va tovlamachilardir. So‘nggi vaqtarda firibgarlik, tovlamachilik bilan bog‘liq jinoyatlar ortgani hech birimizga sir emas albatta. Oxirgi 4 yilda ushbu jinoyat bilan bog‘liq bir nechta shov-shuvli ishlar OAV orqali yoritildi. «Ahmadboy ishi», «Human» va boshqa qator xususiy bandlik agentliklari bilan bog‘liq ishlar shular jumlasidan. «Straus House» MChJ, «Avto 60 oy», Auto Rental kabi qator firma va tadbirdorlik sub'yektlari bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilgan. Qashqadaryoda dunyoga mashhur kompaniyalarning soxta aksiyalari, ya’ni qimmatli qog‘ozlarini sotish orqali 2 mingga yaqin kishini 9 mln AQSh dollariga chuv tushirgan uyushgan jinoiy guruh qo‘lga olingani haqida OAVda xabar qilingan edi. Achinarlisi shundaki, shuncha voqealardan keyin ham firibgarlik jinoyati yoxud firibgar va yo tovlamachi qarmog‘iga ilinayotgan vatandoshlarimiz soni kamayib qolayotgani yo‘q. Bunday tashqari taraqqiyot yuksalgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari ham paydo bo‘moqda. Axborot texnologiyalari, internet orqali amalga oshirilayotgan firibgarliklar ham ko‘p uchrayapti. Firibgarlik bilan bog‘liq statistika haqida. Firibgarlikning bugungi zamonaviy turlaridan biri bu keng tarqalib borayotgan online firibgarlikdir. Ushbu jinoyat bu internet tarmog‘ida sodir etilishi bilan farq qiladi. Aynan bu turdagи jinoyat kiber makondagi hakerlar tomonidan amalga oshiriladi. Jabrlanuvchining ma’lumotlariga asoslanib unga aloqador ma’lumotlar orqali aloqaga chiqadi, bank hisob raqamidan pullarni yechish chog‘ida jabrlanuvchining plastik karta kodini unga telefon orqali bank hodimi ekanligini tanishtirib undan bank hisobiga oid ma’lumotlarni SMS orqali kelganligi hamda uni aytishini so‘raydi. Jabrlanuvchi ko‘pincha hollarda ushbu aldovga ishonadilar va unga ma’lumotlarni aytadilar. Shu orqali online firibgarlik jinoyat sodir etiladi. O‘zi **online firibgarlik nima? degan savol ko‘pchilikda kuzatiladi.**

Internetdagi firibgarlik — Internet orqali insonlarga tegishli pul, qimmatbaho narsalar va meros kabi shaxsiy mulkclarini o‘g‘irlash, o‘marish, talon-toroj qilish maqsadida tashkillashtiriluvchi kiberjinoy firibgarlik, aldov turlaridan biri. Internet firibgarligi yagona, o‘ziga xos jinoyat hisoblanmaydi, biroq kibermakonda sodir etiladigan bir qator noqonuniy harakatlarni o‘z ichiga oladi. Firibgarlikning ushbu turi o‘g‘irlik jinoyatidan farq qiladi.² Firibgarlikning ushbu turi o‘g‘irlik jinoyatidan farq qiladi. Chunki bu holatda jabrlanuvchi ongli ravishda firibgarga shaxsiy ma’lumoti, pul

² Warf, Barney. *The SAGE Encyclopedia of the Internet* (en). SAGE, 2018-05-16. ISBN 9781526450432.

yoki mol-mulkidan foydalanish ixtiyorini topshiradi. Amerika Qo'shma Shtatlari FQB ning 2017-yildagi onlayn jinoyatlar to'g'risidagi hisobotiga ko'ra, Internetdagи jinoyatlar bo'yicha shikoyat markaziga (IC3) 300 000 ga yaqin shikoyat kelib tushgan. Jabrlanuvchilar 2017-yilda onlayn firibgarlik tufayli 1,4 milliard dollardan ko'proq zarar ko'rishgan. Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi (CSIS) va McAfee tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, kiberjinoyatlar jahon iqtisodiyotiga 600 milliard dollarga tushgan. Bu umumiy global yalpi ichki mahsulotning 0,8 foizini tashkil qiladi³. Onlayn firibgarlik ko'p shakllarda, elektron pochta spamerligidan tortib hijakinggacha, namoyon bo'ladi. Onlayn firibgarlik, qisman, Internet xizmatlaridan foydalanishga asoslangan. Internet-marketing firibgarligining o'ziga xosligi kontsertlar, shoular va sport tadbirlari kabi izlanayotgan tadbirlarga chiptalarini taklif qilishidir. Chiptalar soxta yoki hech qachon yetkazilmaydi. Onlayn chipta agentliklarining ko'payishi tajribali va insofsiz chipta sotuvchilarning mavjudligi bunday firibgarlikni kuchaytiradi. Yuqoridagi holatning sodir etilishi Fishing sxemasiga o'xshab ketadi. Fishing sxemasi oddiy – qalloblar tanqli brendlari, banklar va yetkazib berish kompaniyalari nomidan firibgar saytiga havolani tarqatishni tashkil qilishadi. Firibgarlar o'zlarini bank xodimi, Click, Payme kabi to'lov tizimlaridan ekanini aytib, "Plastik kartangizga kiber hujum bo'lyapti" yoki tizimda qandaydir xatolik yuz bergani, tizim yangilangani uchun unga raqamni qayta ulab qo'yish kerakligini sabab qilib ko'rsatadi. "Hozir sizga maxfiy kod yuboriladi, uni zudlik bilan aytishingiz kerak", deydi. Agar raqamni ularash uchun kodni berishmasa, foydalanuvchilar tarmoqdan uzib qo'yilishlari, pul o'tkazish-yechish amaliyotlarini bajara olmasdan bloklanib qolishlarini yoki bo'lmasa, kartasidagi pullaridan ayrilib qolishini aytib, bosim o'tkazishadi. Shuningdek, foydalanuvchidan shaxsiy ma'lumotlari: karta raqam, login va parollar ham so'ralishi mumkin. Sodda insonlar esa vahima va qo'rquv ostida bunday aldovlarga ishonib, darhol telefoniga kelgan SMS-kodni aytadi va kartasidagi bor mablag'dan ayrıldi. Onlayn xizmatlarning rivojlanishi insonlarga yengillik berish bilan birga, firibgarlik holatlariga ham keng yo'l ochmoqda. Biroq, noqulay vaziyatlarga tushib qolmaslik, yolg'on qurbaniga aylanmaslik hamda moddiy yo'qotishlarga uchramaslik faqat va faqat insonning o'ziga bog'liq.

IIV Jinoyat-qidiruv bosh boshqarmasi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-iyul oyida respublika bo'yicha 1954ta firibgarlik jinoyati ro'yxatga olingan bo'lsa, 2020-yilning shu davrida bu raqam 3881tani tashkil etgan. 2019-yilda 1748 kishi qo'lga olinib, firibgarlik jinoyatini ochish 98,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda bu raqam 95,9 foizdan iborat bo'lmoqda. Statistika ma'lumotlari bilan tanishar ekanmiz, firibgarlik jinoyatini sodir etish uslublari diqqatimizni tortdi. 2020 -yil 7 oyi davomida sodir etilgan firibgarliklarning jami 2151tasi pul oldi-berdisi bilan bog'liq bo'lsa, 336tasi chet elga ishga yuborishni va'da qilish mazmuniga ega, 331tasi o'qishga kiritishga doir aldovdir. Jinoyatlarni kimlar sodir etmoqda, degan savolga ham statistika ma'lumotida javob berilgan. Unga binoan, 463tasi ayollar, 511tasi muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilgan bo'lsa, 1277ta holatda ishlamaydiganlar firibgarlikka qo'l urgani qayd etilgan. 2023-yilda sodir etilgan jinoyatlar 18 492 tani tashkil etadi. 2023-yil 7 oyi davomida sodir etilgan firibgarliklarning jami 2151tasi pul

³ [The Economic Impact of Cybercrime— No Slowing Down](#). McAfee (2018). Qaraldi: 2018-yil 24-oktyabr.

oldi-berdisi bilan bog'liq bo'lsa, 336tasi chet elga ishga yuborishni va'da qilish mazmuniga ega, 331tasi o'qishga kiritishga doir aldovdir.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat ko'deksi (1994), O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrda qabul qilingan «Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi 35-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi (2017-yil) farmonlari, “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (2020-yil) hamda „Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi (2020-yil) farmonlari firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashish sohasiga oid ushbu normativ huquqiy hujjatlar firibgarlik jinoyatlarini sud tergov bosqichida shuningdek uni sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy yechim bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Ushbu jinoyatlarni oldini olish borasida quydagi profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirish lozim:

- Firibgarlik jinoyatini sodir etgan shaxslar toifasini o'rghanish va ularning psixologik portredlarini shakllantirish;

- Firibgarlik jinoyatini sodir etilishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rghanish hamda aholi orasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish;

- Firibgarlik jinoyatini sodir etish usul, uslublari, shakllarini keng tahlil qilish hamda ularga qarshi kurashish borasida samarali va tizimli ishlarni yaratish;

- Kiber hujumlarni oldini olish borasida kuchli himoyalangan dasturlar shuningdek elektron tizimli ishonchli inson omili kam va xavsiz ilovalar ishlab chiqish:

 - Bank kartalari shuningdek elektron hisob shotlarini to'liq parollashtirish;

 - Fuqarolarning viktimligini kamaytirish borasida aholi orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish,

 - OAV yordamida turli xildagi videoroliklar va eshittirishlarni tashkil etish;

Xulosa qilib aytganimizda ushbu jinoyatni sodir etilishini oldini olishda fuqarolarimizdan sergaklikni shuningdek o'zlariga bog'liq har bir holda mustaqil to'g'ri yechim qila bilishlari, qonun hujjatlari bilan tanishib chiqishlari albatta jabrlanuvchilar sonini kamaytirishga yaxshigina hissa qo'shamdi. Shuningdek firibgarlik jinoyatlarining oldini olishdagi asosiy yo'nalish umum-ijtimoiy miqqyosdagi iqtisodiyotning bir maromdagi rivojlanishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholini ish bilan bandligini ta'minlash, xalqning ma'naviy an'analarini yuzaga chiqarish va rivojlanish kabi tadbirlar bilan uzviy bog'liqdir. Ummuman olganda targ'ibot va tashviqot ishlariga ham keng e'tibor qaratish lozimdir. Hududlarda kiber jinoyatlar shuningdek firibgarlik jinoyatlari bilan bo'qliq jinoyatlar o'sha mahalla hududida keng jamoatchilik muhokamasidan o'tishi agarda jinoyatni kim sodir etganligi aniqlansa unga nisbatan ko'rilgan qonuniy chora-tadbirlar fuqarolarimiz oldida to'g'ri tadbiq etilishi va shu kabi holatlarni oldini olishda o'z maslahatlarini berib borishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston” нашриёти, 2021, В. 106.

 - 2. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. – Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. –lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi IIV statistikasi (2022-2023 yillar uchun)
5. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi arxivi.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. –lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017 yil 11 oktabrda qabul qilingan «Firibgarlikka oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi 35- sonli qarori. –lex.uz